

Yoshlar bandligini va atrof muhit ni yashil makonga aylantirish uchun "Yoshlar bog'i tabiat va jamiyat obodligi" loyihasini amalga oshirish kerak.

Binobarin bu loyihani jamiyatga joriy qilsak tabiatga va jamiyatga ham koni foyda bo'ladi.

To'g'ri yurtimizda "Yashil Makon" loyihasi va "Yoshlar bog'i" bor.

Bu loyihalar jamiyatimizda izchil o'z ko'lamini kengaytirib bormoqda.

Meni taklifim shundaki har bir ish bilan band bo'lmagan yoshlarga, o'z mahallasidan bog' uchun yer berilsa.

Taklifim agarda jamiyatga tatbiq qilinsa samarasi bunday bo'ladi.

1-dan mahalla kesimida bog'dorchilikka qiziqib bu qiziqishi uchun joy masalasida qiynalayotgan yoshlar masalasi tezda o'z yechimini topadi!

2-dan joy masalasi hal bo'lgach o'z mablag'i yetarli bo'lmagan yoshlarga bog'dorchilik uchun imtiyozli kreditlar ajratish bilan, yoshlarni qo'llab quvvatlash.

Bu bilan jamiyatimizda kichik biznes rivojlanadi hamda yoshlar bandligi ta'minlandi!

3-qadam bu ijtimoiy himoyaga muhtoj oilala farzandlariga yoshlariga bog'dorchilik uchun foizsiz kreditlar yoki subsidiyalar ajratish.

Bu bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilala farzandlariga yoshlariga amaliy yordam berilgan bo'ladi.

Bu esa xalqchil davlat ekanimizning yana bir isboti bo'ladi!

4-qadab yaratilgan boog'ning har bir qarichidan unumli foydalanish.

Bu qanday bo'lishi kerak?

Javob o'rnida tariqasida o'z hovlimda qilgan bog'imni misol tariqasida tushuntirib o'taman.

Bir so'tix ixcham bog' qilganman eksperiment tariqasida va bu o'z mevasini bermoqda!

Bu bog'im tevaragidan kichik ariq qazib bir tarafiga gilos, o'rik, olma nok, uch xil uzum ko'chatlarini Otam bilan ekanmiz.

Va o'rta qismiga oilamiz extiyoji uchun zarur bo'lgan kartoshka ekanmiz taxminan hosili 50 kilogrammdan ko'proq bo'lgan. Bir so'tix yerda yigirma yetti tub ko'chat qolaversa kartoshka yetishtirdik. Bog'dagi mevalar ham hosil bera boshlagan.

Bu eksperimentni taxminan

Bitta yoshga o'n so'tix yoki yigirma so'tix bog'dorchilik uchun yer ajratilgan deb olsak, qancha bo'ladi.

Ham oila ehtjoji ham ortib qolgani mahalla ehtiyojini qondiradi.

5- qadam mahalla oila mahalla ehtiyojidan ortgani tabiiyki ekspert qilishga ham imkon bo'ladi.

Bu esa oiladan tortib mamlakat iqtisodiyodiga ham sezilarli darajada goyda olib keladi.

Xulosa shundan iboratki birgina tarmoq bilan olganda shu loyihni qo'llash bilan shuncha jamiyatga manfaat keltirishi mumkun!